

KIZIL O'SIMLIGINING VEGETATIV KURTAKLARINI RIVOJLANISHI VA NOVDALARINI YILLIK O'SISH DINAMIKASI

Reynazarova Gulperiyzat Nukusbayevna

Toshkent davlat agrar universiteti tayanch doktoranti

***Annotatsiya.** Ilimiy maqolada Toshkent viloyati sharoitida kizil mevali o'simligining Vlademirskiy, Red star, Xelen navlarni morfobiologik hususiyatlarni o'rganish, o'simlik novdalarini o'sishi va rivojlanishi o'simlik holatidan va ularda kechadigan fizologik jarayonlarni kechishiga bog'liqligi va har bir bir fenofaza uchun novdalarni eng uzun, o'rtacha va eng past o'sish ko'rsatkichlarining muddatlari aniqlandi.*

Аннотация В научной статье изучение морфобиологических особенностей сортов Владимирский, Красная звезда, Елена красноплодных растений в условиях Ташкентской области, рост и развитие ветвей растений зависит от состояния растения и физиологических процессов, происходящих место в них и каждой фенофазе. Определена продолжительность наибольшего, среднего и наименьшего показателей роста ветвей.

***Abstract.** In the scientific article, the study of the morphobiological features of Vlademirsky, Red star, Helen varieties of red fruit plants in the conditions of Tashkent region, the growth and development of plant branches depends on the state of the plant and the physiological processes that take place in them, and each phenophase The duration of the longest, average and lowest growth indicators of branches was determined.*

***Kalit so'zlar.** Kizil o'simligi, navlar, harorat, novda, kurtak, barg, o'sish dinamikasi.*

Ключевые слова. красное растение, сорта, температура, стебель, почка, лист, динамика роста.

Key words. *Red plant, varieties, temperature, stem, bud, leaf, growth dynamics.*

Кирриш Bugungi kunda dunyo kam tarqalgan noyob hususiyatlarga ega bo'lgan mevali ekin turlarini ko'paytirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Kizil (*Cornus mascula.L*) o'simligining tabiiy areali Kavkazda keng tarqalgan bo'lib madaniylari esa Moldava, Ukraina, Qirim va qisman Qo'yi volga, O'rta Osiyo, hamda Sharqiy va Markaziy osiyoda ham keng tarqalgan. Uzoq yillik bog'dorchilik tajribasi shuni ko'rsatdikiy madanilashgan Kizil o'simligining zaxiralari kam tarqalganligi, sanoat plantatsiyalarini mavjud emasligi, ushbu mevalarga bo'lgan talabni to'la qonli qondirish imkoni juda pastligidan dalolat beradi. Kizil (*Cornus mascula.L*) o'simligi mo'l-ko'l va barqaror hosil berish hususiyatiga ega. Uning mevalari oziq-ovqat sanoatida turli xil qayta ishlash va konservalash uchun mos bo'lgan meva turlaridan bir hisoblanadi. Respublikada kam tarqalgan, noyob hususiyatlrga ega bo'lgan, meva turlarini ko'paytirish, xususan Kizil (*Cornus mascula.L*) o'simligining morfobiologiyasini o'rganish, yetishtirish bo'yicha ma'lum darajada izlanishlar olib borilgan. Lekin bugungi kundagi zamonaviy qishloq xo'jaligida noyob bo'lgan, respublika hududida kam tarqalgan mevali o'simliklardan Kizil (*Cornus mascula.L*) o'simligining o'rganish va ko'chatlarini ko'paytirish bo'yicha olimlar tomonidan yetarlicha tadqiqotlar olib borilmagan.

Tadqiqot uslubi Dala va ishlab chiqarish tajribalarini o'tkazish, Kizil o'simligini morfobiologik xususiyatlarini tahlil etish, ko'chat yetishtirishda uning urug'idan, yog'ochlashgan va yashil qalamchalaridan ko'chat yetishtirish, sifatli ko'chat chiqishni hisoblash va baholash, X.CH.Bo'riyev va boshqalarning "Mevali va rezavor mevali o'simliklar bilan tajribalar o'tkazishda hisoblar va fenologik kuzatuvlar metodikasi", (2014), Polegayev V.I. "Metodi otsenki kachestva plodov i ovoshey" Metodicheskiye razrabotki (1978), Fedurko T.A. "Полегайев. В.И. "Методы отценки качества плодов и овощей" Методические разработки (1978), Федурко Т.А. "Вирашиванийе клоновых подвойев и посадочного материала плодовых и ягодних культур из

зелених черенков” рекомендации (1992), М.Тarasenkoning “Размножение плодовых растений методом зеленого черенкования побегов” (1969), S.A.Ostrouxovaning «Mevali va rezavor mevali ekinlar ko‘chatlarini yetishtirish uslubi bo‘yicha olib borildi.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Bizga ma’lumki respublikamiz xududida parvarishlanayotgan danak mevali o‘simliklar erta bahorda yoki qish oylari bir oz iliq kelganda fevral oyining ikkinchi va uchunchi dekadasida daraxtlarning gul kurtaklarini uyg‘onishi va jadal gullashini kuzatganmiz. Biz tajribalarimizda o‘rganayotgan kizil o‘simligi ham danak mevali bo‘lib erta bahordan gullashi kuzatildi. Tajribalar shuni ko‘rsatdiki kizil o‘simligi gullash bilan bir qatorda vegetativ kurtaklarni ham uyg‘onishi va novda bo‘lib shakllanib ularning jadal o‘sishi tajribalarimiz davomida kuzatildi. Tajribalarimizda kizil o‘simligini navlarining kurtaklarini uyg‘onishi va boshlang‘ich novdalarni o‘sishi va ularni biometrik o‘lchovlari qayd etilib navlar aro ma’lum bir tofovutlar mavjudligi kuzatildi. Bunda barcha navlarimizda gul kurtaklar uyg‘onib o‘simlik yoppasiga gullash fazasiga kirganidan so‘ng vegetativ kurtaklarni uyg‘onishi, novda va barglarni rivojlanishi bosqichlari kuzatildi. Tajribalarni amalga oshirishda dastlab biz o‘rganayotgan kizil navlarini har biridan 5 tadan o‘simlik jami 15 ta o‘simlik, 15 yoshdagi o‘simliklar tanlab olindi. Barcha o‘simliklarimizda vegetatsiya davrining boshlanishi va aynan vegetativ kurtaklarni uyg‘onish muddati aniqlanib, novdalarni o‘sish jarayoni kuzatildi. O‘simlik kurtaklari bo‘rtib novdalarning o‘sishi 2021 yil mart oyining birinchi dekadasida boshlanganligi tajribalarimizda kuzatildi. Fenologik kuzatuvlarni olib borishdan oldin barcha navlarimizda o‘rganilayotgan tanlab olingan o‘simliklarni yer ustki qismining umumiy balandligi o‘lchab olindi. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki tanlab olingan o‘simliklarning yer ustki qismining umumiy balandligi Vlademirskiy navida 2,86 m, Red Star navida 2,62 m, Xelen navida esa 2,81 m bo‘lgan bo‘lsa, vegetasiya davri oxirida esa Vlademirskiy navi 44,0 sm, Red Star navi 29,9 m, Xelen navi esa 43,0 sm o‘sganligi kuzatildi (1-jadval). Barcha navlarimizda kurtaklarni uyg‘onish davri bir vaqtda sodir bo‘lgan bo‘lsada, novdalarning o‘sishi jadalligi farqlanganligi kuzatildi.

Novdalarning 80-85 % o'sish davomiyligi mart, aprel may va avgust oylariga to'g'ri kelganligi tadqiqotlar davomida aniqlandi. Qolgan oylar davomida ham novdalarda ma'lum bir o'lchamda o'sish kuzatilgan bo'lsada iyun oyining 3 dekadasi va iyul oyi davomida novdalarning o'sish surati juda past bo'lganligi kuzatildi. Novdalarning eng jadal o'sish davomiyligi may oyiga tog'ri kelganligi tajribalarimizda kuzatildi. Tajribalarimizda kizil o'simligini o'sishi va rivojlanishi yil davomida bo'ladigan ob-havo sharoitiga bevosita bog'liqligi kuzatildi. 2022 yilda olib borilgan fenologik kuzatuvlarimizda o'simlikda kechadigan fiziologik jarayonlar ta'sirida o'simlikdagi belgi va hususiyatlarda quyidagi o'zgarishlar sodir bo'lganligi tajribalarimizda aniqlandi O'simliklar vegetasiya davrining boshida umumiy balandligi o'lchanganda Vlademirskiy navida 3,3 m, Red Star navida 2,92 m, Xelen navida esa 3,24 m bo'lgan bo'lsa vegetasiya davri tugagandan so'ng Vlademirskiy navi 37,9 sm, Red Star navi 28,9 sm, Xelen navi esa 34,8 sm o'sganligi aniqlandi Tajribalar shuni ko'rsatdiki 2022 yil davomida olib borilgan kuzatuvlarda ham novdalarni eng yuqori o'sish surati may oyida bo'lganligi aniqlandi. Eng past o'sish surati iyul oyiga to'g'ri keldi. 2022 yilda iyun oyining 1-2 dekadasi va iyul oyida havo harorati o'tgan yillardagiga nisbatan bir oz yuqori bo'lganligi kuzatildi.

Xulosa. Olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki 2023 yil fevral oyida havo harorati keskin pasayishi kuzatildi. Bunda o'simlikning to'liq biologik pishib yetilmagan novdalarini, vegetativ va generativ kurtaklarini qisman zararlaganligi aniqlandi. 2023 yildagi past harorat sababli o'simlikning vegetativ va generativ kurtaklarini uyg'onishi bir oz kechikkan bo'lsada ularda gul kurtaklarni va vegetativ kurtaklarni o'sishi va rivojlanishi qisqa muddatda amalga oshganligi kuzatildi. O'simlikda gullash davomiyligi bilan birga barg va novdalarni shakllanganligi tajribalarimizda kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ардашева О.А., Федоров А.В, Черемных Е.Н. ВЕСТНИК Ижевской государственной сельхоззяйственной академии// Научно-практический журнал №4 (60) 2019.
2. Аргир Эхивондов, Нели Керанова, Светла Пандова Жоурнал оф Анимал анд Плант Ссиэнсэс//Публисатион дате 31/10/2019, Пагес 7153-7161.
3. Анциферов А.В. Кизил с мужском характером / Вестн. Цветовода 2009. №22.
4. Блейз А. И. Энциклопедия орехов и диких ягод/ Олма-ПРЕСС, 2000.- 335с